



BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2021- YIL YANVAR


Sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: 65-220-83-06

Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida viloyat korxonalarini tomonidan 1274,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 86,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (93,5 %)ni tashkil etdi.



B- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C-** Ishlab chiqaradigan sanoat D- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E-** Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 19,7 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 22,9 % ga ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 11,9 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 6,2 % ga pasayishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'satkichdir.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi % da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar | 2021- yil yanvar | Farqi +/- |
|--|---------------------|---------------------|--------------|
| Oltingugurt, t. | 125,0 | 103,0 | -22,0 |
| Shag‘al, t. | 3258,0 | 0 | -3258,0 |
| Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog‘liq burg‘ilash xizmatlari, mln. so‘m. | 11796,4 | 9363,7 | -2432,7 |

Ishlab chiqaradigan sanoat



2021- yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1191,1 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,5 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
% da**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar oyida - 0 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 1,4 % (1,1 %), o'rta-quyi texnologiyali - 49,8 % (61,6 %) va quyi texnologiyalisi - 48,7 % (37,3 %)ni tashkil etdi.

| Yuqori texnologiyali | O'rta-yuqori texnologiyali |
|--|---|
|  Ulushi % da <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 0 2020- y. </div> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 0,1 2021- y. </div> |  Ulushi % da <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 1,1 2020- y. </div> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 1,4 2021- y. </div> |
| O'rta-quyi texnologiyali | quyi texnologiyali |
|  Ulushi % da <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 61,6 2020- y. </div> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 49,8 2021- y. </div> |  Ulushi % da <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 37,3 2020- y. </div> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 48,7 2021- y. </div> |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishslash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 39,4 % (2020- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 68,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 29,1 % (2020- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 105,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,4 % (2020- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 103,9 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,8 % (2020- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 99,6 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 83,7 ming tonna avtomobil benzini (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 33,0 % ga o'sgan), 1,8 ming tonna kalava ip (5,5 %), 7,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (9,1 %), 149,5 ming. litr aroq mahsulotlari (49,2 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar | 2021- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---------------------|---------------------|--------------|
| Mazut, ming t. | 7,7 | 11,5 | 3,8 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), t. | 1203,0 | 640,0 | -563,0 |
| Paxta,tolasi, t. | 12715,0 | 12589,0 | -126,0 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, t. | 6919,3 | 7551,0 | 631,7 |
| Quyish uchun tayyor beton, t. | 1090,1 | 184,8 | -905,3 |
| Avtomobil benzini, ming t. | 62,9 | 83,7 | 20,8 |
| Paxta chigit, t. | 19472,0 | 21676,0 | 2204,0 |
| Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t. | 1038,8 | 3597,1 | 2558,3 |
| Dizel yoqilg'isi, ming t. | 66,0 | 29,3 | -36,7 |


Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish
(2021- yil yanvar)

| | | |
|----------|----------|---|
| FHI % da | | |
| 126,9 % | 2020- y. | 2020- yilning yanvar oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 54,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 26,9 % ga o'sgan. |
| 68,6 % | 2021- y. | Shuningdek, 2021- yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 42,1 % ni, fizik hajm indeksi 68,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 502,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. |

To'qimachilik, kiyim va teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati (2021- yil yanvar)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 99,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,1 % ni, fizik hajm indeksi 5,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 370,6 mlrd so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati (2021- yil yanvar)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar oyida oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 196,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (2021- yil yanvar)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 119,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,4 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 60,9 mlrd so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati (2021- yil yanvar)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2019- yilning yanvar oyida ushbu yo'nalishda mahsulot ishlab chiqarishning ulushi 1,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 121,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, shu turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 36,9 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 20,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash


2021- yil yanvar



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 56,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,5 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,2 % ga kamayganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar | 2021- yil yanvar | Farqi +/- |
|--------------------------------|------------------|------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 0,6 | 0,4 | -0,2 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 148,5 | 152,3 | 3,8 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi % da




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar | 2021- yil yanvar | Farqi +/- |
|--|------------------|------------------|-----------|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 874,1 | 1484,9 | 810,8 |
| Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 30,8 | 40,7 | 9,9 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 32,0 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 503,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 10,2 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 39,5 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,8 % (2020- yil yanvar oyida 2,5 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 23,0 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 18,4 % ni, G'ijduvon tumani 11,4% Kogon tumani 9,3 % ni, hamda Jondor tumani 6,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (110,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor (128,3 %), Olot (119,0 %), tumanlarida hamda Buxoro (126,0%) va Kogon (116,8 %) shaharlarida qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

2021- yil yanvar

| Buxoro viloyati | | |
|-----------------|----------------|-----------------|
| Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| 503,5 | 100,0 | 110,2 |
| Buxoro | | |
| Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| 25,0 | 5,0 | 81,7 |
| Vobkent | | |
| Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| 21,3 | 4,2 | 107,8 |
| G'ijduvon | | |
| Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| 47,1 | 9,3 | 106,5 |
| Kogon | | |
| Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| 23,7 | 4,7 | 96,0 |
| Qorako'l | | |
| Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| 115,7 | 23,0 | 128,3 |
| Peshku | | |
| Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| 12,3 | 2,4 | 103,6 |
| Romitan | | |
| Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| 34,7 | 6,9 | 104,8 |
| Jondor | | |
| Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| 20,0 | 4,0 | 78,7 |
| Shofirkon | | |
| Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| 92,4 | 18,4 | 126,0 |
| Buxoro sh. | | |
| Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| 27,4 | 5,4 | 116,8 |
| Kogon sh. | | |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 34,2 % ni, shuningdek Buxoro shahri 17,2 % ni, Kogon tumani 11,2 % ni hamda G'ijduvon tumani 10,9% ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Kogon shahri (199,8 %), Olot tumani (144,4%), Qorovulbozor tumani (129,2 %) ,hamda Vobkent tumanida (112,9 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yil yanvar

|  | Mird. so'm | | Ulushi % da | O'sishi % da | |
|---|---------------|----------------|-----------------|---|---------------|
| | 333,4 | | 100,0 | 111,8 | |
| Buxoro viloyati | | | | | |
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm |
| | 4,5 | 1,3 | 144, | | 6,3 |
| Olot | | | | | |
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm |
| | 14,8 | 4,4 | 82,5 | | 10,1 |
| Buxoro | | | | | |
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm |
| | 14,0 | 4,2 | 112,9 | | 13,3 |
| Vobkent | | | | | |
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm |
| | 36,2 | 10,9 | 108,4 | | 7,0 |
| G'ijduvon | | | | | |
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm |
| | 37,3 | 11,2 | 95,8 | | 57,2 |
| Kogon | | | | | |
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm |
| | 8,5 | 2,5 | 89,0 | | 10,2 |
| Qorako'l | | | | | |
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm |
| | 114,0 | 34,2 | 129,2 | | 3,1 |
| Qorovulbozor | | | | | |
| Buxoro sh. | | | | | |
|  | Mird. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |  | Mird. so'm |
| | 10,2 | 3,1 | 199,8 | | 184,0 |
| Kogon sh. | | | | | |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 20,7 % ni, shuningdek, Jondor tumani 12,6 % ni, G'ijduvon tumani esa 12,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Kogon (184,0 %), Jondor (108,3 %) tumanlarida hamda Buxoro shahrida (156,2 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yil yanvar

| | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---------------|----------------|-----------------|
| | 170,1 | 100,0 | 107,2 |
| Buxoro viloyati | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 4,3 | 2,5 | 100,9 |
| Olot | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 10,2 | 6,0 | 80,5 |
| Buxoro | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 7,3 1,2 | 4,3 | 99,1 |
| Vobkent | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 21,0 | 12,3 | 92,8 |
| G'ijduvon | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 9,8 | 5,8 | 184,0 |
| Kogon | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 15,2 | 9,0 | 100,4 |
| Qorako'l | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 1,7 | 1,0 | 86,7 |
| Qorovulbozor | | | |
| Peshku | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 6,0 | 3,5 | 96,2 |
| Romitan | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 7,8 | 4,6 | 100,6 |
| Jondor | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 21,4 | 12,6 | 108,3 |
| Shofirkon | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 13,0 | 7,6 | 88,3 |
| Buxoro sh. | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 35,2 | 20,7 | 156,2 |
| Kogon sh. | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
| | 17,2 | 10,1 | 93,6 |

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

2021- yil yanvar

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 115,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 9,1 % ni tashkil etdi.

**Buxoro viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**
2021- yil yanvar

|  | Mlrd. so'm | | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---------------|----------------|-----------------|-----------------|
| | 1274,1 | | 100,0 | 86,8 |
| Buxoro viloyati * | | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da | |
| 21,9 | 1,7 | 100,3 | | |
| Olot | | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da | |
| 45,2 | 3,6 | 97,4 | | |
| Buxoro | | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da | |
| 22,8 | 1,8 | 107,0 | | |
| Vobkent | | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da | |
| 126,4 | 9,9 | 106,0 | | |
| G'ijduvon | | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da | |
| 57,5 | 4,5 | 109,7 | | |
| Kogon | | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da | |
| 41,7 | 3,3 | 99,5 | | |
| Qorako'l | | | | |
|  | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da | |
| 514,8 | 40,4 | 68,6 | | |
| Qorovulbozor | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

**Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab
chigarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Buxoro shahrida (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 111,0 %), Kogon (109,7 %), Vobkent (107,0 %) va G'ijduvon (106,0 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'tgan yilning shu davriga nisbatan pasayish omili bolib Qorovulbozor (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 68,6 %), Romitan (90,0 %) va Shofirkon (93,8 %) tumanlarida ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi hisoblanadi.

Buxoro viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 40,4 % i), Buxoro shahri (14,4 %), G'ijduvon tumani (9,9 %), hamda Kogon shahar (5,4 %), hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Vobkent (1,8 %) hamda Olot (1,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (27976,4 ming so'm), Kogon shahri (1132,8 ming so'm) va Kogon tumanida (730,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (658,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 260,2 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 6287,2 ming so'mni, Kogon tumanida – 598,3 ming so'mni, Kogon shahrida – 447,2 ming so'mni, Buxoro shahrida 329,2 ming so'mni tashkil etdi.


**Aholi jon boshiga to‘q’ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
2021- yil yanvar, ming so‘m

|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> | | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> | |
|---|---------------------------------------|--|------------------------------|--|
| | 658,3 | | 260,2 | |
| Buxoro viloyati | | | | |
|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> 220,2 | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> 88,0 | | |
| Olot | | | | |
|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> 270,0 | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> 149,5 | | |
| Buxoro | | | | |
|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> 162,6 | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> 152,1 | | |
| Vobkent | | | | |
|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> 414,1 | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> 187,5 | | |
| G‘ijduvon | | | | |
|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> 730,5 | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> 598,3 | | |
| Kogon | | | | |
|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> 253,7 | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> 144,2 | | |
| Qorako‘l | | | | |
|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> 27976,4 | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> 6287,2 | | |
| Qorovulbozor | | | | |
|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> 315,5 | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> 99,3 | | |
| Peshku | | | | |
|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> 286,1 | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> 125,9 | | |
| Romitan | | | | |
|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> 330,5 | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> 198,0 | | |
| Jondor | | | | |
|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> 298,0 | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> 112,2 | | |
| Shofirkon | | | | |
|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> 654,2 | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> 329,2 | | |
| Buxoro sh. | | | | |
|  | <i>Sanoat mahsulotlari</i> 1132,8 | <i>Iste’mol mahsulotlari</i> 447,2 | | |
| Kogon sh. | | | | |

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 2021-yil yanvar, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 384,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,2 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Vobkent tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kogon (95,5 %), Jondor (70,3 %), Buxoro (57,7 %), hamda Romitan (51,0 %) tumanlarida kuzatildi.



Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Qorovulbozor tumani (0,9 %), Kogon shahar (29,0 %) va Peshku (20,8 %) tumanida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4432 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1229 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 27,7 % i) Buxoro shahriga, 571 tasi (12,9 % i) G'ijduvon tumaniga, 355 tasi (8,0 % i) Buxoro tumaniga 337 tasi (7,6 % i) Kogon tumaniga, 307 tasi (6,9 % i) Jondor tumaniga, 301 tasi (6,8 % i) Romitan tumaniga to'gri kelmoqda.



2020- yilning yanvar oyida viloyatda 84 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 20 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 23,8 %) G'ijduvon tumanida, 12 tasi (14,3 %) Buxoro shahrida, 8 tasi (9,5 %) Buxoro tumanida, 7 tasi (8,3 %) Jondor tumanida tashkil etildi.